

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>F.A.Yuldashev</b>	
Axborotlashgan jamiyat sharoitida yoshlarning ehtiyoj va manfaatlarini gumanizatsiyalash masalalari .....	218
<b>I.A.Asatulloev</b>	
Alfred adler falsafasida qalb tushunchasining psixoanalitik tahlili .....	223
<b>D.Sh.Sagdullayeva</b>	
Ijtimoiy - siyosiy modernizatsiya jarayonining tarixiy ildizlari .....	228
<b>S.S.Sodiqov</b>	
Yoshlarda faol pozitsiyani shakllantirishning milliy-tarixiy asoslari .....	234
<b>I.A.Hamdammov</b>	
Mirzo Ulug'bek – temuriylar renessansi asoschisi .....	240
<b>H.X.HAKIMOV</b>	
Развитие социально экономических идей в трудах ученых энциклопедистов Узбекистана в период первого ренессанса .....	245
<b>Q.H.Boymirzayev</b>	
Abu Abdulloh Rudakiyning hayoti va faoliyat yo'li, uning Musulmon Sharqidagi ijtimoiy-madaniy muhitning shakllanishidagi o'rni .....	252
<b>B.M.Qandov, N.A.Abduvalieva</b>	
Yangilanayotgan O'zbekistonda aholini ish bilan ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy asoslari .....	256
<b>E.T.Qalqanov</b>	
Vatanparvarlik madaniy hodisa sifatida ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari .....	261
<b>Sh.X.Tog'ayev</b>	
Yangilanayotgan O'zbekistonda o'zbek xalqi milliy g'ururini shakllantirishning manbalari va vositalari .....	266
<b>I.A.Ikramov</b>	
Jamiyat ijtimoiy hayotida ijtimoiy xotira va madaniy qadriyatlar strukturasi .....	272
<b>V.B.Zayniddinova</b>	
Jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy-madaniy texnologiyalar strategiyasi .....	277
<b>J.M.Miraxmedov</b>	
Milliy o'zlikni anglash kontekstida tarixiy ongning gnoseologik tahlili .....	281
<b>B.X.Mirzaraximov</b>	
O'zbekiston yangi taraqqiyot bosqichida turizm madaniyati rivojlanishining ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy omillari .....	285
<b>D.E.Normatova</b>	
Ekzistensializm – hayot falsafasi .....	293

## SIYOSAT

<b>I.A.Raximov</b>	
“Obod va xavfsiz mahalla” tamoyilining xavfsiz muhitni yaratishdagi o`ziga xos mexanizmlari” .....	297
<b>M.H.Rustamaliyev</b>	
Jamiyatni barqaror taraqqiyotini ta'minlashda siyosiy boshqaruvga ehtiyojning kuchayishi .....	302
<b>N.B.Dexkanov</b>	
Siyosiy piar (pr)ning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni .....	306
<b>M.X.Baratov, R.T.Xakimov, B.T.Akramxodjaev</b>	
Jahon Savdo tashkilotining tuzilishi, funksiyalari va faoliyat doirasi .....	312
<b>J.K.Yusubov, F.X.Mustafoyeva</b>	
Mamlakatimiz ijtimoiy rivojlanishida jahon davlatlari tajribasidan foydalanish .....	323
<b>J.K.Yusubov, D.A.Xusanova</b>	
Ahloqan yetuk va fidoiy davlat fuqarolik xizmatchilarini tarbiyalash – mamlakat rivojining muhim omili .....	327

## TARIX

<b>A.Sharafiddinov</b>	
Farg'ona viloyatida yog'-moy sanoatining shakllanishi tarixidan (XIX asr oxiri XX asr boshlari) .....	331



UO‘K: 303.483:601.4

## JAMIYAT TARAQQIYOTI VA IJTIMOY-MADANIY TEXNOLOGIYALAR STRATEGIYASI

## РАЗВИТИЕ ОБЩЕСТВА И СОЦИОКУЛЬТУРНАЯ ТЕХНОЛОГИЧЕСКАЯ СТРАТЕГИЯ

## SOCIETY DEVELOPMENT AND SOCIO-CULTURAL TECHNOLOGY STRATEGY

Zayniddinova Vasila Bakiyevna 

Toshkent axborot texnologiyalar universiteti gumanitar fanlar kafedrasida katta o‘qituvchisi

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonning zamonaviy demokratik qiyofasini yaratilayotgani, mamlakatni yangi rivojlanish bosqichiga ko‘tarish uchun belilab olingan strategik yo‘lining ijtimoiy-madaniy texnologiyalarini qisman tasavvur qilish imkonini beradi. O‘zbek xalqining Yangi Uyg‘onish davri asoslarini yaratish bilan bog‘liq ezgu orzu intilishlari, ularni amalga oshirish jarayonidagi eng muhim vazifalar ijtimoiy-falsafiy jihatdan ochib berilgan.

**Аннотация**

В данной статье создается современный демократический образ Нового Узбекистана, а также частично могут быть представлены социокультурные технологии выбранного стратегического пути подъема страны на новый этап развития. С социально-философской точки зрения раскрываются благородные стремления узбекского народа, связанные с созданием основ эпохи Нового Возрождения, важнейшие задачи в процессе их реализации.

**Abstract**

In this article, the modern democratic image of New Uzbekistan is being created, and the socio-cultural technologies of the strategic path chosen to raise the country to a new stage of development can be partially imagined. The noble aspirations of the Uzbek people related to the creation of the foundations of the New Renaissance period, the most important tasks in the process of their implementation are revealed from a socio-philosophical point of view.

**Kalit so‘zlar:** jamiyat, taraqqiyot, strategiya, taraqqiyot strategiyasi, ijtimoiy-madaniy texnologiyalar, ustuvor yo‘nalishlar, inson qadrini, ijtimoiy siyosat.

**Ключевые слова:** общество, развитие, стратегия, стратегия развития, социокультурные технологии, приоритеты, человеческие ценности, социальная политика.

**Key words:** society, development, strategy, development strategy, socio-cultural technologies, priorities, human value, social policy.

**KIRISH**

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning samarasi, avvalombor, zamon talabiga javob bera oladigan kuchli bilim va malakaga ega bo‘lgan ma‘naviy barkamol kadrlarga bog‘liq ekanligi bilan belgilanadi. Shu sababli ham yosh avlodni ham jismoniy ham ruhiy jihatdan yetuk qilish voyaga yetkazish bugungi kunning dolzarb masalasiga aylangan.

Taraqqiyot strategiyasi bu – davlat va jamiyatimizning yangi bosqichida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy-ma‘rifiy sohalarni yangilanishi texnologiyasidir. Buning sababi shundaki, ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning asosiy vazifasidan kelib chiqib belgilanadi. Ayni paytda mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori konyukturasi keskin o‘zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro‘yobga chiqarishni taqozo etmoqda. Mana shundan ma‘lumki, jamiyatimiz taraqqiyoti uchun xizmat qiluvchi qonunlarni qabul qilinishi hamda aholi turmush farovonligini oshirishdan iboratdir. Taraqqiyot strategiyasi mazmun mohiyati jihatidan ijtimoiy-madaniy texnologiyalar sifatida inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish, milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur‘atlarini ta‘minlash, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish, ma‘naviy taraqqiyotni ta‘minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish, milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy

muammolarga yondashish, mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borishga yo'naltirilgan maqsadli besh yillik dasturdir. Taraqqiyot strategiyasining "Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish" ustuvor yo'nalishi bo'lgan qismida ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning asosini belgilanishi bilan ahamiyatlidir. Jumladan, unda belgilangan aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ta'lim va fan sohasini rivojlantirish va eng muhimlari sifatida yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish ijtimoiy-madaniy texnologiyalarni amalga oshiruvchi vositalar bo'ladi.

O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichi rivojini tarixiy-ma'naviy omillarini o'rganish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Bugungi kunda "Xo'sh, Yangi O'zbekistonni qanday barpo etamiz?", "Buning uchun yetarli omillar va imkoniyatlarimiz bormi?" degan savollar tobora dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining mustahkam tayanchi va suyanchi bo'ladigan tarixiy-ma'naviy omil, ya'ni bizning eng katta boyligimiz – xalqimizning ulkan madaniy merosi, intellektual salohiyatidir[1.31.].

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Mamlakatimiz taraqqiyotini yanada yuksak bosqichga ko'tarish maqsadida Harakatlar strategiyasini qabul qildik. Bu noyob hujjatda belgilangan ulug'vor vazifalarni ro'yobga chiqarishga qat'iy kirishganimiz biz uchun yangi ufq va imkoniyatlar ochib bermoqda.

Dunyo miqyosida raqobat keskinlashib borayotgan hozirgi murakkab davrda mamlakatimizni ilm-fan yutuqlari, yuqori texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish va yangilash eng muhim vazifamizga aylanmoqda[2.88.].

O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurishning o'ziga xos xususiyatlari, yoshlarni demokratik davlat va fuqarolik jamiyati to'g'risidagi g'oyalarga oid adabiyotlarni tahlil qila olishi zarurati dolzarb ahamiyatga ega. Bunda sohasidan qat'i nazar kadrlar "Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari", "demokratiya", "huquqiy davlat", "fuqarolik jamiyati", "taraqqiyotning yangi bosqichi", "Harakatlar strategiyasi", "rivojlanish", "innovatsion boshqaruv" "Yangi O'zbekiston" kabi tushunchalarni puxta o'rganishlari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jamiyatimizda siyosiy faollik ortib bermoqda, barcha sohalarda chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Ulardan ko'zlangan maqsad – "Inson manfaatlari hamma narsadan ustun" degan oddiy va aniq-ravshan tamoyilni amalga oshirish ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan demokratik davlat va adolatli jamiyat barpo etishdan iborat.

Umumxalq muhokamasidan so'ng besh yilga mo'ljallangan O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi qabul qilindi. Bu strategiyani ishlab chiqishda biz o'zimizga chetdan nazar tashlab, salohiyat va imkoniyatimizni xolis baholash bilan birga, xato va kamchiliklarimizni ham atroflicha tanqidiy tahlil qildik.

Strategiya – bu yangilanish jarayonlarining haqiqiy harakatlar dasturidir"[3.].

Biz yangi O'zbekistonni xalqimiz bilan birgalikda barpo etamiz, degan ulug'vor maqsadni o'z oldimizga qo'ygan ekanmiz, bu borada O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida innovatsion yondashuvlarni jamiyat o'zgarishlarini yangi bosqichiga chiqishi bilan ifodalash mumkin bo'ladi.

Boshqarish jarayonida doimo biron-bir masalani hal qilishga to'g'ri keladi. Chunki turli sabablar tufayli belgilangan rejalardan og'ish sodir bo'ladi, yangi jarayonlarga zaruriyat tug'iladi, natijada jamiyat oldida paydo bo'lgan muammoni bilish, uni tahlil qilish va hal etish zaruriyati yuzaga keladi.

Shu o'rinda taraqqiyot va yuksak rivojlanishga erishgan davlatlar tajribasiga ko'ra har bir xalq o'z oldiga ulug' va istiqbol maqsadlarni qo'yishi hamda uni amalga oshirish salohiyatlari bilan jahon hamjamiyatiga kirib keladi. Strategik tafakkurga ega, uzoqni ko'ruvchi siyosatchilar, tom ma'nodagi xalqning haqiqiy yetakchilari sifatida jamiyatdagi sodir bo'ladigan muommolarni oldindan ilg'ab, ularning samarali va istiqbolli yechimlarini topa oladi. Ayniqsa, millat uchun murakkab va mas'uliyatli sharoitlarda jamiyat rivojini belgilab berishga qodir rahbarlarning vujudga kelishini ham davrning o'zi taqozo etadi.

"Strategiya" tushunchasi grekcha so'zdan olingan bo'lib aslida "jang san'ati" ma'nosini bildiradi. Bugungi kunga kelib "strategiya" keng tushuncha bo'lib, turli siyosiy-ijtimoiy sohalarda qo'llanilmoqda. Jumladan, "Davlat strategiyasi" siyosiy termenologiya sifatida bugungi kunda fan nazariyasi va amaliyoti darajasida o'zining alohida tushuncha va kategoriyalariga ega bo'lib;

## FALSAFA

- 1.) Uzoqqa mo'ljallangan rejalashtirish san'ati.
- 2.) Boshqaruv va rahbarlik mahorat san'ati.
- 3.) Siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni idora qilish san'ati.
- 4.) Aholini ma'lum maqsadlar sari safarbar etish san'ati.
- 5.) Mavjud resurslardan oqilona foydalanish san'ati.
- 6.) Taqsimlash va samaradorlikni ta'minlash san'ati kabi tushunchalarni qamrab oladi

[4.148.].

Jamiyat boshqaruvi ilmiy shakllanmagan joyda odamlardan mehr-oqibat ko'tarila boshlaydi, haqiqiy insoniy munosabatlarga putur yetadi. Bu borada O'rta asr Sharqining buyuk allomasi Abu Homid Muhammad G'azzoliy "Ixyoi ulumid din" ("Diniy ilmlarning tiriltirilishi") deb nomlangan asarining "Dil ajoyibotlarining sharhi" bo'limida "Boshqaruv dilning haqiqat mohiyatini emas, balki sifat ahvolini tanishga muhtojdir"[5.] deya ta'kidlaydi.

Bugungi kunda mamlakatimizda 7 mingdan ortiq nodavlat notijorat tashkilotlari iqtisodiyot, ta'lim, sport, ayollar va yoshlar masalalari, ekologiya masalalari, ijtimoiy va huquqiy yordam hamda boshqa yo'nalishlarda faoliyat olib bormoqdalar. Mazkur muassasalar joylarda ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etishda, aholining, ayniqsa, yoshlarni qo'llab-quvvatlash va faolligini oshirishga ko'maklashib kelishmoqdalar.

### NATIJA VA MUHOKAMA

Bugun yoshlarimiz ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni kuzatishi va faol ishtirok etishi, jamiyatning asosi bo'lgan qonun ustuvorligini bilishi, unga itoat etishi va hurmat qilishi, fuqarolik burchini anglab yetishlari uchun ijtimoiy-madaniy texnologiya lozim bo'ladi. Shuningdek, fuqarolik jamiyati asoslaridan biri bo'lgan mamlakatimizda samarali faoliyat olib borayotgan NNTlar faoliyati haqida tushunchaga ega bo'lishi va ixtiyoriylik asosida u yoki bu NNT faoliyatida ishtirok etishlari maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda tadbirkorlik va fermerlikni rivojlantirishga yordam beradigan tuzilmalar, sport va yoshlar tashkilotlari, siyosiy partiyalar hududiy bo'linmalarining salmoqli o'rni bor. Ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish maqsadida ajratilayotgan grant mablag'lari hisobidan nodavlat notijorat tashkilotlarini moliyalashtirish hajmi kengaymoqda. Bunda eng muhimi, aholining kasbiy, ijtimoiy va madaniy tarkibi manfaatlarini yanada to'laroq ifodalash hamda himoya qilishda fuqarolik jamiyati institutlari, ya'ni, nodavlat-notijorat tashkilotlari tuzilmalarining vakolat doirasi va mavqeini oshirish zarur. "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari", degan ijtimoiy-madaniy tamoyilning mohiyati ana shunda yaqqol namoyon bo'ladi. Shunday yondashuv fuqarolarning o'zlariga o'z hayoti va butun jamiyat hayotini boshqarishda va tashkil etishda faol ishtirokchi sifatini o'zini ko'rish uchun imkoniyat yaratadi. Bu esa fuqarolik jamiyatining umume'tirof etilgan tamoyillariga to'la mos kelishligi bilan ahamiyatlidir.

Davlatni aql-idrok bilan boshqarish,-mutafakkir Abu Nasr Forobiy X asrda saboq berib aytgandek, - xalq boshiga tushgan xavf-xatarni kamaytirish va bartaraf etishdan iboratdir [6.10]. Bizningcha, ijtimoiy-madaniy texnologiyalarni qo'llanilishi xalq boshiga tushishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlardan, muammolardan asraydi.

### XULOSA

Jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy-madaniy texnologiyalar strategiyasining ijtimoiy-falsafiy mohiyati huquqiy demokratik davlat barpo etish, buyuk maqsad hamda ezgu niyatlarimizga erishish, yurtimizda amalga oshiriladigan islohotlarimiz natijasi va taqdiri har tomonlama yetuk malakali, madaniyatli, ma'naviy barkamol kadrlarimizning faolligiga bog'liq ekanligini unutmashimiz lozim. Ijtimoiy-madaniy texnologiyalar xalqning ma'naviyati va madaniyati, uning tarixi, jamiyatimizni yangilash va taraqqiy ettirish yo'lidan muvaffaqiyatli ravishda olg'a siljitishda hal qiluvchi, ta'bir joiz bo'lsa, yetakchilik ahamiyatiga egadir. Huquqiy demokratik adolatli davlat qurishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, xalqimizning madaniy va eng nozik tuyg'ularini, chuqur falsafiy, siyosiy, huquqiy tushunchalarini o'zida mujassam etadigan ma'naviyatni yuksaltirish asosiy va ustuvor vazifalardan biriga aylanadi. Ijtimoiy-madaniy texnologiyalarni amalga oshiruvchi kadrlarni tayyorlash bilan boy va milliy ma'naviyatimizni tiklash, uni avaylab asrash, yanada rivojlantirish ta'lim tarbiya tizimini takomillashtirish kabi muhim masalalardan biri bo'lib ijtimoiy sohani rivojlantirish orqali erishiladi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тошкент. Ўзбекистон. 2022.
2. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. – Тошкент: Ўзбекистон. 2019.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 19 сентябрдаги БМТ 72-сессиясидаги маърузасидан <https://president.uz/uz/lists/view/4179>.
4. Буланова Е.А. Политика и стратегия в механизме государственного регулирования социально-экономических процессов. Вестник Чувашского университета. 2006. №3.
5. Абу Ҳомид Муҳаммад ал-Ғаззолий. – Тошкент: “Ёшлик”. 1990.
6. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: “Янги аср авлоди”. 2016.